



## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRINING BUYRUG'I

### Umumiy o`rta ta`lim muassasalari o`quvchilari o`rtasida “O`zbek tilim- iftixorim” respublika tanlovini o`tkazish to`g`risida

Vatanimiz mustaqilligining ma`naviy asoslarini mustahkamlash, o`quvchilarni milliy qadriyatlarimizga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda o`zbek tilining ahamiyati tobora ortib borayotganini hisobga olib hamda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to`g`risida” 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son va “Mamlakatimizda o`zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmonlari hamda O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirining 2021-yil 14-iyundagi 179-sonli buyrug`i ijrosini ta`minlash maqsadida buyuraman:

1. O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirining umumiy o`rta ta`lim muassasalari o`quvchilari o`rtasida “O`zbek tilim-iftixorim” respublika tanlovini o`tkazish to`g`risidagi 179-sonli buyrug`i ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tanlovni tashkil etish va o`tkazish to`g`risidagi Nizom O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirining 179-buyrug`i 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlanganligi ma`lumot uchun qabul qilinsin.

3. Umumiy o`rta ta`lim muassasalari o`quvchilari o`rtasida “O`zbek tilim-iftixorim” respublika tanlovining Qoraqalpog`iston Respublikasi bosqichini tashkil etish bo`yicha ishchi guruh tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Respublika ta`lim markazi(Q.Jubanov)ga:  
tanlovning hududiy bosqichlarini Nizom asosida o`tkazilishiga uslubiy yordam ko`rsatish;

tanlovning Qoraqalpog`iston Respublikasi bosqichini o`tkazishda hakamlar hay`ati tarkibiga tajribali mutaxassislarni jalb qilish choralarini ko`rish;

tanlovning Qoraqalpog`iston Respublikasi bosqichini yuqori saviyada tashkil etish;  
hududiy bosqish yakunlari bo`yicha hujjatlarni talab darajasida rasmiylashtirish, natijalarni o`rnatilgan tartibda respublika ishchi guruhiga taqdim etish;

tanlovning respublika bosqichida ishtirok etadigan o`quvchilar va ularga biriktirilgan mas`ullarning xavfsizligini ta`minlagan holda Toshkent shahriga borib kelishlarini tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

5. Barcha tuman(shahar) xalq ta`limi bo`limi rahbarlariga:  
tanlovning mazmun-mohiyatini umumta`lim maktablari pedagogik jamoasi va o`quvchilar o`rtasida keng targ`ib qilish;

tanlovning hududiy bosqichlarini Nizom asosida yuqori saviyada tashkil etish;  
hakamlar hay`ati tarkibini tajribali mutaxassislardan shakllantirish, ularning adolatli va xolisona faoliyat ko`rsatishini ta`minlash;



hududiy bosqish yakunlari bo'yicha hujjatlarni talab darajasida rasmiylashtirish, natijalarni o'rnatilgan tartibda Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markaziga taqdim qilish vazifalari yuklatilsin.

6. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo'limi (T.Dayletmuratov) o'tkazilgan tanlov jarayonlarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish va vazirlikning veb-saytiga joylashtirish choralarini ko'rsin.

7. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari v.v.b.Q.Bekbauliyev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



R.Reimov

Nukus shahri

2021-yil « 14 » UZH

№ 152

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirining  
2021-yil 14 "152" -son buyrug'iga  
1-Ilva

**Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida "O'zbek tilim-iftixorim"  
respublika tanlovini tashkil etish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi ishchi guruhi  
TARKIBI**

Q. Bekbauliyev - Vazirning birinchi o'rinbosari v.v.b, ishchi guruh rahbari

Q. Jubanov - Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi  
Respublika ta'lim markazi direktori, ishchi guruh hamraisi

A. Dayletbayev - Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi  
Respublika ta'lim markazi direktori o'rinbosari, a'zo

M. Asemetdinov - Umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi  
boshlig'i, a'zo

Lavozim bo'yicha – barcha tuman(shahar) xalq ta'limi bo'limi boshliqlari, a'zo

N. Matlatipova - Respublika ta'lim markazi o'zbek tili fani metodisti, ishchi guruh  
kotibi